

Ispan tilini o‘qitish jarayonida mashqlar tizimi va ularning tipologiyasi.

Tashpulatova Feruza Sultanovna
feruzasultanova19740401@gmail.com

Senior lecturer
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ispan tilini o‘qitish jarayonida mashqlar tizimi va ularning tipologiyasini qo‘llash jarayoni va uning talabalarning akademik yutuqlarini oshirishga ta’siri o‘rganiladi. Maqolada mashqlar tizimini qo‘llashda xorijiy tillarni xususan ispan tilini o‘rgatishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishda ishlatiladigan mashqlar tizimi va tipologiyasi ya’ni til o‘rgatish metodikasi retseptiv mashqlar, reproduktiv mashqlar, kompleks til mashqlarining ahamiyati ko‘rib chiqiladi, shuningdek, talabalarning muloqot va til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mashqlar tizimi va tipologiyasining samaradorligi va afzalliklari muhokama qilinadi. Mazkur maqolada ispan tilini o‘qitish jarayonida mashqlar tizimini qo‘llashning metodik jihatlari va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni batafsil tahlil qilinadi. Xorijiy tillarni o‘rgatishda, xususan, ispan tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida qo‘llaniladigan mashqlar tizimi va ularning tipologiyasiga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada quyidagi masalalar yoritiladi til o‘rgatishda mashqlar tizimining ahamiyati, retseptiv mashqlar tinglash va o‘qish orqali tushunishni rivojlantirish, reproduktiv mashqlar o‘z fikrini ifoda qilish va tilni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, kompleks til mashqlari bir nechta ko‘nikmalarni bir vaqtning o‘zida rivojlantirish. Kommunikativ kompetensiya talabalarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va turli metodlarni birlashtirish orqali talabalarning akademik yutuqlarini oshirish imkoniyatlari aks ettiradi. Maqolada mashqlar tizimi va uning talabalarning til o‘rganish motivatsiyasi hamda muvaffaqiyatlariga ijobiy ta’siri muhokama qilinadi. Shu bilan birga, muallif mashqlarni tanlashda ularning bosqichma-bosqichlik tamoyiliga va talabalarning individual o‘ziga xos xususiyatlariga mos kelishi zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: ispan tilini o‘qitish, kommunikativ kompetensiya, til o‘rgatish metodikasi, mashqlar tipologiyasi, mashqlar tizimi, til mashqlari, retseptiv mashqlar, reproduktiv mashqlar, kompleks til mashqlari.

System of exercises and their typology in the process of teaching Spanish.

Tashpulatova Feruza Sultanovna
feruzasultanova19740401@gmail.com

Senior lecturer
Uzbek State World Languages University

Annotation: This article examines the process of using the system of exercises and their typology in teaching Spanish and its impact on improving students' academic performance. The article examines the importance of the system and typology of exercises used in the formation, development and improvement of communicative competence in teaching foreign languages, especially Spanish, that is, the methodology of teaching language, receptive exercises, reproductive exercises and complex language exercises. as well as students' communicative and language skills. The effectiveness and advantages of the system and typology of developmental exercises are discussed. This article analyzes in detail the methodological aspects of using the system of exercises in teaching Spanish and its role in the educational process. Particular attention is paid to the system of exercises and their typology used in teaching foreign languages, especially Spanish, for the purpose of forming, developing and improving communicative competence. The article covers the

following issues: the importance of the system of exercises in language teaching, receptive exercises for developing understanding through listening and reading, reproductive exercises for expressing one's opinion and developing skills in using language in practice, complex language exercises for developing several skills at the same time. Communicative competence reflects the possibilities of increasing students' academic achievements by combining various methods of developing students' speech skills. The article examines the system of exercises and its positive impact on students' motivation and success in learning a language. At the same time, the author emphasizes that when choosing exercises, they should correspond to the principle of gradation and the individual characteristics of students.

Key words: *teaching Spanish, communicative competence, language teaching methods, typology of exercises, system of exercises, language exercises, receptive exercises, reproductive exercises, complex language exercises.*

Система упражнений и их типология в процессе обучения испанскому языку.

Ташпулатова Феруза Султановна
feruzasultanova19740401@gmail.com

старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация: *В данной статье рассматривается процесс использования системы упражнений и их типология при обучении испанскому языку и ее влияние на повышение успеваемости учащихся. В статье рассматривается значение системы и типологии упражнений, используемых в формировании, развитии и совершенствовании коммуникативной компетентности при обучении иностранным языкам, особенно испанскому, то есть методике преподавания языка, рецептивными упражнениями, репродуктивными упражнениями и комплексными языковыми упражнениями. а также коммуникативные и языковые навыки учащихся. Обсуждаются эффективность и преимущества системы и типологии развивающих упражнений. В данной статье подробно анализируются методические аспекты использования системы упражнений в процессе обучения испанскому языку и ее роль в образовательном процессе. Особое внимание уделено системе упражнений и их типологии, используемым при обучении иностранным языкам, особенно испанскому, с целью формирования, развития и совершенствования коммуникативной компетентности. В статье освещены следующие вопросы: значение системы упражнений в обучении языку, рецептивные упражнения для развития понимания посредством аудирования и чтения, репродуктивные упражнения для выражения своего мнения и формирования навыков использования языка на практике, комплексные языковые упражнения для Развивать развитие нескольких навыков одновременно. Коммуникативная компетентность отражает возможности повышения академических достижений учащихся за счет сочетания различных методов развития речевых навыков учащихся. В статье рассматривается система упражнений и ее положительное влияние на мотивацию и успехи учащихся в изучении языка. . При этом автор подчеркивает, что при выборе упражнений они должны соответствовать принципу градации и индивидуальным особенностям учащихся.*

Ключевые слова: *обучение испанскому языку, коммуникативная компетентность, методика преподавания языка, типология упражнений, система упражнений, языковые упражнения, рецептивные упражнения, репродуктивные упражнения, комплексные языковые упражнения.*

Kirish. Ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda ta'lim vazifasining o'rni ham yuqori darajalarda oshdi. Xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganishda ta'lim o'z funksiyasini bajarishi uchun ta'lim sifatini doimiy rivojlanishda bo'lishi kerak va sifatini oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlar talabalarning erishgan yutuqlarini sezilarli darajada oshiradi. Talabalarning erishgan yutuqlarini oshirish uchun ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlar zarur. Ta'limda talabalarning erishgan yutuqlari haqida juda samarali omillardan biri o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan o'qitish tamoillari va sifatidir.

Til o'rganish jarayoni ko'p qirrali, o'z ichiga ham nazariy bilimlarni, ham amaliy ko'nikmalarni olgan murakkab jarayondir. Bu jarayondagi har bir element bevosita o'qitishning mashqlari bilan bog'liqligi va til materiallari va har bir til ko'nikmasini egallashda o'ziga xos mashq sistemalaridan foydalanishimiz mashqlarning til o'qitishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. O'z navbatida, har bir til ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga xos mashq sistemalariga qo'yilgan talablar mavjud.

Masalan, tinglab tushunishga qaratilgan mashqlar quyidagilarni ta'minlashi lozim:

1. Mashqlarning tinglanayotgan xabarning psixologik va lingvistik murakkabligiga mosligi.
2. Tinglash jarayonining boshqa nutq turlari, ayniqsa, gapirish bilan korrelyatsiyalash imkoni.
3. Tinglab tushunish bilim va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini boshqara olishi.
4. Amaliy maqsadni va ta'lim maqsadini amalga oshirishi.

Mashqlar tipologiyasi mashqlarni majud xususiyatlariga ko'ra sinflash demakdir. Mashqlariy faoliyatga tayyorlash tayyorlovchi, til mashqlari va mashqlariy faoliyatda ishtirok etishini ta'minlash mashqlariy, kommunikativ mashqlarning asosiy sinflash belgilari hisoblanadi.

Mashqlarni tipologiyalash, turlash, sinflash ham til o'qitish metodikasining bahsli jihatlaridan biridir. Mashqlarni sinflarga ajratishga ko'plab urinishlarni kuzatishimiz mumkin. Ayrim uslubshunoslar mashqlar tipologiyasi aniq bir kriteriyaga ko'ra amalga oshirilishi kerak, deb hisoblashsa ma'lumotning o'zgarish darajasiga ko'ra til elementlaridan foydalanishga imkon beradi.

Asosiy qism. Mashqlar tipologiyasi va tizimiga bo'lgan yondashuvlar tarixiy rivojlanish jarayonida sezilarli o'zgarishlarga duch kelgan. Dastlabki davrlarda til aspektlariga yo'naltirilgan mashqlar ustunlik qilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda kommunikativ yo'naltirilgan mashqlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Mashqlarning asosiy tipologiyalari orasida til va mashqlar, retseptiv va reproduktiv mashqlar, kompleks til mashqlari, o'quv mashqlar muhim o'rin tutadi. Har bir tipologiya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, til o'rgatish jarayonining turli bosqichlarida va maqsadlarida qo'llaniladi (Ахмедова, 2012).

Samarali mashqlar tizimiga qo'yiladigan zamonaviy talablar kompleks xarakterga ega. Bular orasida kognitiv jarayonlarni rivolantirish, barcha til aspektlari va mashqlariy faoliyat turlarini qamrab olish, qiyinchilik darajasining o'sib borishi, o'zaro bog'liqlik, takroriylik va kommunikativ yo'naltirilganlik alohida ahamiyatga ega. Mashqlar tizimini shakllantirishda til o'rganuvchilarning psixologik xususiyatlari, til materialining murakkabligi va kommunikativ maqsadlar inobatga olinishi zarur. Bu omillarning muvozanatli hisobga olinishi mashqlar tizimining samaradorligini oshiradi. Zamonaviy til o'qitish metodikasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimi eng samarali hisoblanadi. Bunday tizim til bilimlarini amaliy muloqot jarayonida qo'llash imkonini beradi. Mashqlarni samarali qo'llash uchun ularning o'zaro bog'liqligi, ketma-ketliligi va kommunikativ yo'naltirilganligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu prinsiplar asosida tuzilgan mashqlar tizimi til o'rganish jarayonini yanada samarali va maqsadli qiladi (Бакиева, Караева, Коршунова, Краева, Тешабаева & Фролова, 2012).

O'tgan asning 60-yillar boshlarida metodik adabiyotlarda mashqlarni ularda nutqiy muloqot aktiga taqlidning mavjud yoki mavjud emasligiga ko'ra tiplarga ajratish taklif qilindi. Mashqlar tushunchasining sinonimi sifatida kommunikativ mashqlar termini paydo bo'ldi. Bu terminning paydo bo'lishi bilan grammatik, leksik va fonetik mashqlar kommunikativ va nokommunikativlarga ajratila boshlandi (Patricia, & Cabrera, 1999).

Bu terminlarning afzalligi ularning nutqiy faoliyat nazariyasi, muloqot nazariyasi va psixologlarning nutqiy harakat haqidagi izlanishlariga mos kelishi bilan bog'liq.

Bu terminlarning afzalligi ularning nutqiy faoliyat nazariyasi, muloqot nazariyasi va psixologlarning nutqiy harakat haqidagi izlanishlariga mos kelishi bilan bog'liq. Kommunikativ mashqlarda tildan foydalanish shakllari nutqiy harakatlarni aks ettiradi va nutqiy muloqotni talab qiladi (Livingstone, 2011).

Lekin quyidagi ikkita holat bu atamadan foydalanishni qiyinlashtirgan. Birinchidan, kommunikativlik metodik adabiyotlarda bir ma'noda sharhlanmasdi. Agar mashq, hech bo'lmaganda, kommunikativ muloqotning tashqi tarafini aks ettirsa, bu mashq kommunikativ hisoblangan. Masalan, aytilgan gapning ta'kid yoki inkor qilinishi ham kommunikativlik hisoblangan.

Nutq mashqlari turli nutqiy faoliyatlar gapirish, yozish, tinglab tushunish, o'qishda tabiiy muloqot mashqlari; o'quv nutqiy yoki shartli mashqlariy mashqlar, o'qish sharoitida nutqiy kommunikatsiyaga taqlid qiluvchi mashqlar (Sabirova, 2024).

Ko'rib turganimizdek, terminologik farqlarga qaramasdan, barcha mashqlar til materiali va nutq mashqlariga ajratilgan bo'lib, ularni til o'rgatish jarayonida to'g'ri qo'llash va natijada o'rganuvchini eng maqbul mashqlar yordamida muloqotga mohirona tayyorlash zarur.

Ispan tilini o'rganish jarayonida foydalaniladigan mashqlar turli xil bo'lib, ular tilning barcha asosiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirish kompetensiyalari uchun quyida asosiy mashq turlari va ularni qanday bajarish kerakligi haqida ma'lumot beriladi. Eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari. Audio va videolarni tinglash: ispan tilida tayyorlangan podkastlar, hikoyalar, filmlar yoki yangiliklarni tinglash (Sabirova, 2024).

Tinglangan so'zlarni yoki gaplarni ovoz chiqarib qayta takrorlash.

Gapirish ko'nikmasini rivojlantirish mashqlari.

Rol o'ynash. Hayotiy vaziyatlarni o'ynash (do'konda xarid qilish, restoranda buyurtma berish va hokazo). So'z boyligini oshirish uchun so'z o'yinlari. Qisqa matn yoki hikoya tuzish uchun tasodifiy so'zlardan foydalanish.

Til o'rganish do'stlari bilan suhbatlar. Tilni o'rganuvchilar yoki mahalliy so'zlashuvchilardan iborat guruhlariga qo'shilish.

Kunlik kundalik yuritish. Har kuni chet tilida bir nechta gap yozish va ovoz chiqarib o'qish.

O'qish ko'nikmasini rivojlantirish mashqlari.

Matnni tahlil qilish. Matndan yangi so'zlarni ajratib olib, ularning ma'nosini o'rganish. O'qilgan materialga savol berish. Matndan olingan asosiy fikrlar, tafsilotlar va so'zlar ustida ishlash.

Matnni o'qib, uning qisqa mazmunini yozish yoki og'zaki aytib berish.

Yozish ko'nikmasini rivojlantirish mashqlari.

Diktantlar yozish. Audio materialni tinglab, so'zlarni yoki gaplarni yozish.

Erkin yozuv mashqlari. Ma'lum bir mavzuda qisqa matn yozish.

Grammatika mashqlari. To'g'ri grammatik tuzilmalarni o'rgatishga mo'ljallangan topshiriqlarni bajarish. Tuzatilgan matn ustida ishlash. O'zingiz yozgan matnni o'qituvchi yoki do'stingiz bilan tahlil qilib, xatolarni tuzatish.

Lug'at boyligini oshirish mashqlari.

So'zlarni tasniflash. Yangi so'zlarni mavzular bo'yicha ajratib yozish (masalan, ovqat, sayohat, tabiat va boshqalar). Krossvord yoki so'z qidirish o'yinlari. Yangi so'zlarni eslab qolishga yordam beradi.

Interaktiv mashqlar. Mobil ilovalar. Duolingo, Memrise, Quizlet kabi ilovalar tilni qiziqarli va interaktiv tarzda o'rganish imkonini beradi.

Onlayn testlar va o'yinlar. Grammatik, lug'aviy yoki talaffuz bo'yicha testlarni bajarish. Har bir mashqni amalga oshirganda maqsadga muvofiqlikni va bosqichma-bosqich yondashishni unutmaslik kerak. Har kuni oz miqdorda bo'lsa ham muntazam ishlash katta natijalarga olib keladi.

Mashqlarning ma'lum tizim holida bo'lishligi ularning muvaffaqiyatli qo'llanilishining eng birinchi va asosiy xususiyatidir. Mashqlar tizimining kamchiligi esa ko'p sonli va ko'p vaqt bajariladigan mashqlarning samarasiz natijalarning asosiy sababidir. Til o'qitish shart-sharoitlarining tizimini yaratish muammosi amaliy va nazariy jihatdan juda muhim hisoblanadi (Салахова, 2020).

Metodikaning bugunga qadar yetarli, ma'lum maqsadda yo'naltirilgan mashqlar tizimiga ega emasligi bilan belgilanadi. Chet tilini o'qitishda qo'llaniladigan mashqlarning ayrim tip va turlari samarali bo'lsa, ular til o'rgatishning butunlay muvaffaqiyatli bo'lishligini belgilaydi. Til o'rgatishdagi muvaffaqiyat faqat mashqlarning samarali tizimini ta'minlashi mumkin. Bu muammo nazariy jihatdan eng murakkab hisoblanadi. Bugungi kunda oxirgacha hal qilinmagan metodikaning vazifalari sifatida mashqlar tizimidagi quyidagi tushunchalar "tizim", "kichiktizim", "seriya", "sikl", "mashqlar guruxi" kabi tushunchalarni ko'rsatish mumkin (Tashpulatova, 2024).

Bu terminlarning ma'nosini quyidagi misolda ko'rsatamiz. Chet tillarni o'qitishda qo'llaniladigan mashqlar tizimiga to'rtta kichik tizimdagi mashqlar kiradi:

- 1. Gapirishni o'rgatadigan mashqlar.**
- 2. Tinglab tushunishni o'rgatadigan mashqlar**
- 3. O'qishni o'rgatadigan mashqlar.**
- 4. Yozuvni o'rgatadigan mashqlar.**

Har bir kichik tizimdagi mashqlar o'z navbatida bir necha xususiy ko'nikmalarga o'rgatadigan mashqlar yig'indisini o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, dialogik mashqlarni o'rgatadigan mashqlar yig'indisi monologik mashqlarni o'rgatadigan mashqlar to'plami.

Har bir mashqlar to'plami mashqlariy va texnikaviy malakalarni o'rgatadigan uchta mashqlar seriyasidan tashkil topadi. Har bir mashqlar seriyasi o'z navbatida qator mashqlar tizimini o'z ichiga oladi. Masalan, talaffuzni o'rgatadigan mashqlar, gapirishni sintaktik tomonini o'rgatadigan mashqlar, og'zaki mashqlarning morfologik malakalarini o'rgatadigan mashqlar sikli. Mashqlar sikli ma'lum, til hodisalarini o'rgatadigan ancha kichik mashqlar guruhiga bo'linishi mumkin.

Mashqlar tizimini tuzishdagi asosiy metodik tamoyillar. Har bir mashq kichik tizimini tuzishdagi birinchi metodik tamoyil mashqlarning asosiy tiplari va turlarini o'rgatilayotgan mashqlar faoliyati turi lingvopsixologik xarakteristikalariga mos kelishlik tamoyili hisoblanadi. Ushbu tamoyilga muvofiq gapirishni o'rgatadigan mashqlar kichik tizimida gapirishda qo'llanadigan kommunikativ mashqlar, kishini o'rgatadigan mashqlar kichik tizimida o'qishda qo'llaniladigan kommunikativ mashqlar asosiy o'rinni egallashi kerak (Хамракулова, 2024).

Mashqlar tuzishda qo'llanadigan ikkinchi tamoyil o'quv jarayonida turli mashqlar faoliyati turlarining bir-biriga ijobiy ta'sir etilishlarini hisobga olishlik tamoyilidir. Mashqlar faoliyati turlari: Tinglab tushunish, O'qish, Yozish, Gapirish.

2. Chet tillarni o'qitish mashqlari va turlari

Mashqlar tizimi mashq tiplariga bo'linadi. Mashq tiplari esa o'z ichiga mashq turlarini oladi yoki tiplari mashq turlarining yig'indisidir. Metodistlar mashqlarni oldin 2 ta tipga ajratganlar:

Til mashqlari

Mashqlar mashqlari.

Til mashqlari. Til mashqlari til materiallarini o'rgatish, o'zlashtirishni, ularni o'rgatishdagi qiyinchiliklarni yo'qotishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ular leksika, grammatika, fonetika yoki talaffuz, orfografiyani o'rgatish mashq turlariga bo'linadi. Mashqlar mashqlari esa til materiallari fonetika, leksika, grammatika, orfografiya asosida mashqlar faoliyati (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv)turlarini shakllantirish, o'rgatish, rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu sababdan bu mashq tipini tushunish, gapirish, yozuv mashq turlariga bo'lish mumkin. Keyinchalik esa til mashqlari tayyorlov mashq tiplari deb atala boshlandi.

Til mashqlari mashqlarni rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish va tilni o'rganish jarayonida yordam beruvchi muhim usullardan biridir. Quyida turli darajadagi til o'rganuvchilar uchun mashqlari keltirilgan:

Boshlang'ich daraja:

Yangi soʻzlar oʻrganish.

- Har kuni 5-10 ta yangi soʻz oʻrganib, ularni gaplarda qoʻllash
- Soʻzlarni tasviriy lugʻat yordamida oʻrganish.

Oddiy gap tuzish.

- Har bir oʻrganilgan yangi soʻz bilan 2-3 ta sodda gap tuzish.

Masalan: “Libro” soʻzi bilan: Yo leo el libro

Audio tinglash:

- Oʻrganayotgan tilda oddiy dialog yoki qisqa hikoyalarni tinglash.
- Soʻzlarning talaffuziga eʼtibor berish.

Oʻrta daraja:

Matnlar bilan ishlash:

- Kichik hikoya yoki maqolani oʻqish va uning mazmunini qayta hikoya qilish.
- Matndan yangi soʻzlarni ajratib olib, ularning maʼnosini yozib olish.

Savol-javoblar:

- Matn asosida savollar tuzish va ularga javob berish.
- Masalan: Nima uchun bu hikoya muhim? kabi savollar.

Soʻz boyligini oshirish:

- Sinonim va antonimlarni izlab topish, gaplarda qoʻllash. Ejemplos: *katta - ulkan, kichik - mitti**.

Yuqori daraja:

Insholar yozish:

- Oʻzingizni qiziqtirgan mavzuda qisqa insho yozish.
- Yozgan matningizni oʻqib, grammatik va stilistik xatolarni topish.

Bahslar va muhokamalar:

- Tanlangan mavzuda oʻz fikringizni bildirish.
- Qarama-qarshi fikrni himoya qilishga harakat qilish.

Murakkab matnlarni tahlil qilish:

- Adabiy asar, maqola yoki ilmiy ishni oʻqish.
- Oʻqilgan matn asosida savollar tuzish va ularning javobini batafsil yozish.

Barcha darajalar uchun.

Oʻyinlar va interaktiv mashqlar.

- Lugʻat oʻyinlari (rebuscar, embrollo).
- Aniq bir mavzu boʻyicha soʻz qidirish yoki jumla tuzish.

Mobil ilovalar va onlayn resurslardan foydalanish.

- Duolingo, Memrise, Quizlet kabi platformalarda mashq qilish.

Kunlik kundalik tutish.

- Har kuni 3-5 jumla yozib, tavsiflash.

Mashqlar soʻzlash qobiliyatini oshirish uchun juda foydali boʻlib, quyida turli mashqlar tipologiyasi keltirilmoqda.

➤ Tovushlar ustida ishlash: Har bir tovushni toʻgʻri talaffuz qilish uchun maxsus mashqlarni bajarish. Unli tovushlarini kuchli talaffuz qilinishi. Misol: Bir matni avval shivirlab, keyin odatiy ohangda, oxirida esa baland ovozda oʻqib chiqish. Harflarni toʻliq va aniq talaffuz qilishga eʼtibor berish.

Matn oʻqish.

- Har kuni 5-10 daqiqa sekin va aniq matn oʻqib mashq qilish.
- Jumlalarning ohangini va mantiqiy urgʻularini toʻgʻri qoʻyishga harakat qilish.

Soʻz boyligini oshirish.

- Yangi soʻzlarni yodlab, ular bilan jumlar tuzish.

- Kun davomida o‘qigan matnini yoki ko‘rgan film haqida qisqa mashqlar tayyorlash.

Qiyin so‘zlarni talaffuz qilish

- Qiyin yoki kam ishlatiladigan so‘zlarni talaffuz qilishni mashq qilish.

Masalan: “Statistika”, “Ekspeditor”, “Nafislik”

Dialog mashqlari

- O‘z-o‘zingiz bilan yoki sherik bilan savol-javob qilib mashqlar so‘zlashni mashq qilish.
- Kundalik hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish.

Masalan: Do‘konga borish, tanishuv, suhbat.

Yaxshi notiqlar, aktyorlar yoki diktorlarning mashqlarini eshitib, ularning talaffuzini va ohangini takrorlash.

- **Kommunikativ mashqlar.**
- **Kommunikativ bo‘lmagan mashqlar.**

Kommunikativ mashqlar: Til o‘rganishda o‘zaro muloqotni, mashqlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bo‘lib, ular o‘quvchilarning muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu mashqlar mashqlarning quyidagi jihatlari e‘tibor qaratadi. So‘zlashuv ko‘nikmasini rivojlantirish: O‘quvchilar o‘z fikrlarini ifodalashda faol qatnashadilar.

Tinglab tushunish: Suhbatdoshning mashqlarini tinglash va tushunishga o‘rgatadi.

Erkin mashqlarni rivojlantirish: Qiziqarli mavzularda suhbatlashish orqali erkin ifoda qilish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Qaror qabul qilish: O‘quvchilar muloqot jarayonida muayyan qarorga kelishni o‘rganadilar.

Kommunikativ mashqlar turlari:

Dialog va suhbatlar: Juftlikda yoki kichik guruhlarda suhbat tashkil qilish (*savol-javob orqali muloqot qilish*)

Rolli o‘yinlar: O‘quvchilarni muayyan vaziyatga mos rollarni bajarishga undash (*do‘konda xarid qilish, sayohatga tayyorgarlik ko‘rish*)

Muammoli vaziyatlar: Muammoni hal qilish bo‘yicha fikr almashish

Guruh loyihalari: Guruh bo‘lib biror mavzuda loyiha tayyorlash va uni taqdim etish. **Masalan:** “Men orzu qilgan shaharcha” mavzusida loyiha yaratish.

Ko‘rgazmali materiallar bilan ishlash: Surat, video yoki audiomaterial asosida muloqot. **Masalan:** bir suratni ko‘rsatib, gapirtirish.

Ushbu mashqlar o‘quvchilarni erkin muloqotga o‘rgatadi va tilni amalda qo‘llash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Kommunikativ bo‘lmagan mashqlar: Til o‘rgatish jarayonida tilning grammatik yoki leksik qoidalarini mashq qilish va takomillashtirishga qaratilgan. Bu turdagi mashqlarda asosiy e‘tibor qoidalarni to‘g‘ri qo‘llashga qaratiladi va ular odatda muloqot orqali amalga oshirilmaydi. Quyida kommunikativ bo‘lmagan mashqlarga misollar keltiriladi.

Bo‘shliqni to‘ldirish mashqlari.

Berilgan jumladagi bo‘sh joylarni kerakli so‘z yoki grammatik shakl bilan to‘ldirish: Misol: **Julieta Venegas**

Nació en Tijuana (Mexico) en 1970. A los ocho años 1..... a estudiar piano clásico. Cuando 2..... estudiante, empezó. 3..... en él grupo Chantaje, por investigación de un amigo, y a componer canciones. Tras formar. 4..... otros grupos, en 1996 se 5..... simplemente en Julieta Venegas.

(a tocar, Carrera, participado, comenzó, actualmente, guitarra)

Grammatik qoidalarni yodlash va qo‘llash

O‘quvchilarga qoidalarni yodlatish va shu asosda gaplar tuzdirish.

Misol: Mayl zamonlarida jumlar tuzish:

Completa las oraciones con el Pretérito Perfecto de indicativo

1. ¿Tú (ver) _____ este película hoy? (**has visto**)

2. Por la mañana los estudiantes (llegar)_____ temprano a la universidad (**han legado**)

Bu mashqlar muloqot qilish maqsadini ko'zlamaydi, balki til strukturasi bo'yicha bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi. Keyinchalik, bu bilimlarni kommunikativ mashqlar orqali amaliyotda qo'llash mumkin.

Talaffuz mashqlari

Talaffuz mashqlari mashqlarni aniq va ravon qilish uchun muhimdir. Quyida talaffuzni yaxshilashga yordam beradigan bir nechta mashqlar keltirilgan:

Tovushli mashqlar - Harf va tovushlarni mashq qilish.

Unli tovushlarni aniq va kuchli talaffuz qilinishi.

Undosh tovushlarning artikulyatsiyasida o'zgarishlari.

Audio yoki video yozuvlar: O'zingizni yozib olish va eshitish. Xatolarni aniqlab, ularni to'g'irlashga harakat qilish.

Leksik mashqlar

Leksik mashqlar – bu so'z boyligini oshirish, so'zlarning ma'nosini yaxshiroq tushunish va ularni to'g'ri qo'llashga yordam beruvchi mashqlar to'plamidir. Quyida leksikani rivojlantirish uchun bir nechta mashq turlari keltirilgan:

Sinonim va Antonimlarni topish.

➤ So'zlar juftligini berib, ular orasidan sinonim yoki antonimlarni topish so'raladi. **Masalan:** Sinonimlar: grande- enorme, bonito-guapo

Antonimlar: claro - oscuro, rico - pobre

So'z yasalihi bo'yicha mashqlar

- Berilgan fe'llardan yangi so'zlarni hosil qilish. **Masalan:** escribir-escritor, escrita.

Matndan yangi so'zlarni o'rganish. O'qilgan matndan bilmagan so'zlarni ajratib olib, ularning ma'nolarini aniqlash va jumlada qo'llash.

O'xshash so'zlarni topish: So'zlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash. **Masalan:** Mar-agua, sol-rayo (Sabirova, 2024).

Xulosa. Ispan tilini o'qitishda va o'rganishda mashqlardan foydalanish bo'yicha ilmiy xulosalar ta'lim metodikasi, lingvistika, psixologiya va pedagogika tadqiqotlariga asoslanib quyida xulosalar keltiriladi ya'ni mashqlarni tanlash va tuzishning ahamiyati foydalaniladigan mashqlar o'quvchilarning bilim va malaka darajasiga moslashtirilishi kerak. Juda oson yoki murakkab bo'lgan mashqlar o'quvchilarning ilm va bilimga bo'lgan ishtiyoqini kamaytiradi. Ispan tilini o'rganish jarayonida ma'lumotlarni takrorlash, mashqlar orqali yangi o'rganilgan materiallar qayta-qayta ishlatilishi lozim. Takrorlash materialni mustahkamlashda juda muhimdir.

Mashqlarni turli maqsadlarda qo'llash ya'ni leksik va grammatika mashqlar yangi so'zlar va grammatik qoidalarni o'rgatishda zarur. Mashqlar ko'nikmalari uchun suhbatga asoslangan mashqlar tilni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirishga yordam beradi. Mashqlar faoliyati turlaridan tinglab tushunishni rivojlantirish va yozuv ko'nikmalari uchun mashqlar asosan audio yoki video materiallar asosida mashqlar tinglash malakasini shakllantirib insholar yozish, jumla tuzish kabi mashqlar esa ifodali yozishni rivojlantiradi. Ispan tilini o'qitishda mashqlar to'plamini qo'llashda psixologik omillarni hisobga olish zarur. Bu omillar Motivatsiya, Individual yondashuv, Ilmiy yo'nalishga asoslangan omillar tarkibi o'quvchining qobiliyatlari va o'zlashtirish tezligi, mustaqil fikrlashi, samaradorlikni oshirishi kabi bilim, ko'nikma va malakasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахмедова, Л. (2012). *Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов (на материале художественных текстов)*. Каталог авторефератов, 1(1), 1-46.

2. Бакиева, Х., Караева, Б.Х., Коршунова, Е.Н., Краева, И.А., Тешабаева, Д.М., & Фролова, Г.М. (2012). *Узбекский язык для стран СНГ*.
3. Patricia, G., & Cabrera, A.F. (1999). Evaluación de Competencia Comunicativa en Español como Lengua Extranjera. *Concepción: Editorial Dirección de Docencia, Universidad de Concepción*.
4. Livingstone, K.A. (2011). La evaluación de un modelo metodológico mixto para mejorar las habilidades productivas y receptivas en español como segunda lengua: un estudio cuasi-experimental. *Lengua y Habla*, (15), 33-58.
5. Sabirova, N.K. (2024). *Factores cognitivos que influyen en la adquisición del español como segunda lengua*. *European Scholar Journal*, 5(2), 47-48. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/esj/article/view/4309>
6. Sabirova N.A. (2024). *Talabalarning yozma nutqini o'qitishda yozma ishlarning ahamiyati*. *Journal of Research and Innovation*, (2(3)), 14-18.
7. Салахова, Д.С. (2020). *Использование изобразительной наглядности для обучения письменной речи на уроке иностранного языка*. *Интернаука*, (37-1), 34-36.
8. Tashpulatova, F. S. (2024). *Ispan tili leksikasini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rgatishning maqsad va vazifalari*. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 43(3), 108-112.
9. Хамракулова, Б. А. (2024). *Цифровые инструменты и их эффективность в совершенствовании коммуникативных навыков студентов*. *Журнал гуманитарных и естественных наук*, (14 (2)), 81-89.

Электрон маълумотлар

1. Asher J. (1982) TPR: After forty years, still a very good idea, 2007 // <http://www.tpr-world.com/japan-article.html>; Asher J., *Learning Another Language Through Actions*, Los Gatos, CA, Sky oaks Productions.
2. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. M.I.T. Press, p. 4 <https://faculty.georgetown.edu/irvinem/theory/Chomsky-Aspects-excerpt.pdf>
3. <https://www.brownmosten.com>